



UDK:72.36-1

Shohsanam ABDUJABBOROVA,
ToshDO‘TAU magistranti
E-mail: shohsanam.0705@gmail.com

ToshDO‘TAU dotsenti v.b S.Rasulova taqrizi asosida

SA‘DULLA SIYOYEVNING “AHMAD YASSAVIY” ROMANINING TIL XUSUSIYATLARI

Аннотация

Mazkur maqolada Sa‘dulla Siyoyevning “Ahmad Yassaviy” romanining til xususiyatlari kompleks tahlil qilinadi. Asarda muallif nutqi va personajlar nutqining o‘zaro munosabati, tarixiy va arxaik leksika, tasavvufiy terminologiya, epitelar, frazeologik birliklar, epigraflar, badiiy tasvir vositalari, allegoriyalar, xalq maqollari misollar asosida yoritiladi. Shuningdek, asarda monolog va dialog vositasida obraz ruhiyati ochib beriladi.

Kalit so‘z: Muallif nutqi, personaj nutqi, epigraflar, frazeologizm, allegoriya, xalq maqollari, badiiy til, o‘xshatish, epitet, dialog, monolog.

ОСОБЕННОСТИ ЯЗЫКА В РОМАНЕ СА‘ДУЛЛА СИЯЕВА «АХМЕД ЯССАВИ»

Аннотация

В данной статье проводится комплексный анализ языковых особенностей романа Са‘дуллы Сияева «Ахмед Яссави». В произведении рассматривается соотношение авторской речи и речи персонажей, использование исторической и архаической лексики, суфийской терминологии, эпитетов, фразеологических единиц, эпитаф, средств художественной выразительности, аллегорий и пословиц на основе конкретных примеров. Кроме того, в статье показано, что посредством монолога и диалога раскрывается внутренний мир образов.

Ключевые слова: Авторская речь, речь персонажей, эпитаф, фразеологизм, аллегория, пословицы, художественный язык, сравнение, эпитет, диалог, монолог.

LANGUAGE FEATURES IN SADULLA SIYOYEV’S NOVEL “AHMAD YASSAVI”

Annotation

This article provides a comprehensive analysis of the linguistic features of Sa‘dulla Siyoyev’s novel “Ahmad Yassaviy.” The study examines the correlation between the author’s narration and the characters’ speech, the use of historical and archaic vocabulary, Sufi terminology, epithets, phraseological units, epigraphs, and various artistic and figurative devices, including allegory and proverbs, based on illustrative examples. In addition, the article demonstrates how the psychological states of the characters are revealed through monologue and dialogue.

Key words: Author’s speech, characters’ speech, epigraph, phraseological unit, allegory, proverbs, literary language, simile, epithet, dialogue, monologue.

Kirish. Badiiy asar tili adabiyotshunoslikning muhim tadqiqot obyektlaridan biri hisoblanadi. Til vositasida nafaqat voqealar bayon qilinadi, balki tarixiy muhit, qahramonlarning ruhiy holati va muallifning estetik qarashlari ham ifodalanadi[4]. Badiiy asarlarda tarixiy va eskirgan so‘zlar yozuvchining g‘oyaviy-badiiy maqsadini amalga oshirishga yordam beradi [1]. Badiiy matn tuzilishi muallif nutqi va personajlar nutqi o‘zaro munosabati orqali izohlanadi [2]. Badiiy matn lingvistikasi doirasida til birliklarining estetik yuklamasiga e‘tibor qaratiladi [4].

Sa‘dulla Siyoyevning “Ahmad Yassaviy” romani tassavvufning mashhur namoyandalaridan biri, turkiy xalqlarning buyuk shoiri Ahmad Yassaviy hayotini badiiy talqin etgan tarixiy asardir. Roman syujeti voqealar rivojiga asoslangan bo‘lib, unda Ahmad Yassaviyning Makka sari safari, tarixiy voqealar, ijtimoiy muhit va ruhiy izlanishlar bir-biri bilan uzviy bog‘langan. Shu bois asar tilining o‘rganilishi roman g‘oyasini chuqurroq anglash imkonini beradi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Badiiy asar tili muallif nutqi va personajlar nutqidan tashkil topadi. Muallif nutqi voqealarni bayon etish, qahramonlarning ichki holatini ochish va asarning g‘oyaviy yo‘nalishini belgilash vazifasini bajaradi. Siyoyev romanida muallif nutqi tarixiy va tantanavor ohangda bo‘lib, Ahmad Yassaviy shaxsini yuksak ma‘naviy darajada ko‘rsatishga xizmat qiladi. Muallif nutqi orqali

qahramonning ruhiy izlanishlari, ijtimoiy muhit bilan munosabati hamda hayotiy sinovlari umumlashtirib beriladi. Muallif nutqi matnning estetik ta‘sirchanligini kuchaytiradi. Roman matnida muallif nutqi ko‘pincha voqealarga baho beruvchi, ularni umumlashtiruvchi vazifani bajaradi. Muallif nutqi vositasida asardagi boshqa personajlar nutqi, voqealar, tafsilotlar yaxlit bir organizmga – badiiy matnga birikadi [2].

Personajlar nutqi esa qahramonlarning individual xususiyatlarini ochishga xizmat qiladi. Muridlar nutqida hurmat va itoat ohangi ustun bo‘lsa, hukmdorlar va amaldorlar nutqida buyruqbozlik va qat‘iylik seziladi. Personaj nutqini individuallashtirish badiiy asarda muhim vazifa bajaradi. Siyoyev romanida har bir ijtimoiy qatlam vakilining nutqi o‘ziga xos leksik va uslubiy belgilar bilan farqlanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Adabiyotshunoslikda, tarixiy so‘zlar o‘tmishda ma‘lum tushunchalarni ifodalagan, ammo keyinchalik, shu tushunchalarning o‘zi yo‘qolib ketishi bilan ularning ifodasi sifatida iste‘moldan chiqib ketgan so‘zlar sifatida izohlanadi [1]. Shuning uchun yozuvchi o‘sha davr ruhini berish maqsadida romanda tarixiy hamda arxaik so‘zlardan unumli foydalangan. Roman tilida shayx, murid, xonaqoh, amir, sulton kabi tarixiy birliklar faol qo‘llanadi. Bu so‘zlar XII asr Turkiston muhitini yaratishga xizmat qiladi va voqealar rivojini tabiiy ko‘rsatadi. Arxaik so‘zlar ham asarda muhim badiiy vazifani bajaradi. Ulus, lashkar, irshod, darvish

kabi birliklar zamonaviy muqobillariga nisbatan tarixiylikni kuchaytiradi va bunday birliklar matnda davr ruhini saqlash vositasi bo'lib xizmat qiladi. Roman tilidagi tarixiy va arxaik leksika o'quvchini tasvirlanayotgan davrga olib kiradi va syujetning ishonarliligini oshiradi.

Shuningdek, roman tilining muhim qatlamini tasavvufiy terminlar tashkil etadi. Zikr, pir, murid, irfon, tariqat, riyozat kabi so'zlar qahramonning ruhiy izlanishlarini ifodalashda faol qo'llanadi. Badiiy matnda terminologik birliklar ham estetik yuklama oladi. Asarda tasavvufiy terminlar faqat axborot bermaydi, balki ramziy ma'no kasb etib, asar obrazlarining ichki olamini ochadi. Tasavvufiy leksika orqali qahramonlarning nafs bilan kurashi, ruhiy kamolot sari intilishi va ijtimoiy muhitga munosabati badiiy ifoda topadi. Bu birliklar roman g'oyaviy qatlamining asosiy tayanchi hisoblanadi.

Tahlil va natijalar. Romanda qahramonlarning ruhiy holati va ichki kechinmalarini ifodalashda frazeologik birliklardan unumli foydalanilgan. Masalan, Ahmad Yassaviyning ichki iztiroblari tasvirida: "Ko'nglida og'ir bir yuk turganday, nafi bilan olishardi" ruhiy og'irlikni, "ko'zi ochildi, dunyosi o'zgardi" jumlasida ma'rifat topish ma'nosida ishlatilgan bo'lsa, "yuragi zirqirab ketdi" iborasi qo'rquv va iztirobni kuchli badiiy ifodalashga xizmat qiladi. Masalan, muridlar va xalq orasidagi suhbatlarda "ko'ngli joyiga tushdi", "yuragi ezildi", "yuzlari qora bo'ladi", "achchig'i keldi", "nafs domiga tushib" kabi turg'un birikmalar uchraydi. Bu birliklar personajlar nutqini jonlantirib, uni sun'iylikdan holi qiladi. Ayniqsa, oddiy xalq vakillarining nutqida frazeologizmlar ko'proq ishlatilib, ular orqali ijtimoiy qatlam farqi syezdiriladi. Muallif nutqida esa frazeologik birliklar kamroq, lekin badiiy yuklama bilan qo'llanadi. Romanda ko'plab tushunchalar allegorik yo'sinda beriladi. Allegoriya mavhum tushunchalarni konkret narsa-hodisalar nomi bilan ifodalashda namoyon bo'ladi [2. – B. 287]. Masalan: "Zulmat ichida qolgan inson nursiz qolgan ko'z kabi edi" jumlasida zulmat – jaholat, nur – ilohiy haqiqat ramzi sifatida berilgan. "Bu yo'l - oddiy safar emas, nafsni yengish yo'li edi" jumlasida yo'l obrazi tariqat va ruhiy kamolot yo'li sifatida allegorik ma'noda ishlatilgan. Romanda xalq donoligini ifodalovchi maqollardan ham foydalanilganini ko'rish mumkin. Ayrim muridlar va keksalar nutqida nasihat xarakteridagi gaplar maqol ohangida beriladi. Masalan, ilmning ahamiyati haqida so'z borganda "ilm – nur, jaholat – zulmat" mazmunidagi fikrlar maqolga xos shaklda ifodalaniadi. Shuningdek, sabr va qanoat haqida aytilgan "Sabrlining tagi - sariq oltin", "Ilmli bilan johil teng bo'lmas" kabilar ham xalq maqollari ruhiga mos keladi. Bu holat asarning milliy koloritini kuchaytgan hamda tasavvufiy g'oyalarni xalqona shaklda ifodalashga xizmat qilgan.

Roman tilida real harakatlar bilan birga ruhiy holatlar ham ramziy obrazlar orqali ochib beriladi. Bundan tashqari, romanning muhim kompozitsion xususiyatlaridan biri shundaki, har bir fasl epigraf bilan boshlanadi. Ushbu epigraflar, asosan, Ahmad Yassaviy hikmatlari yoki tasavvufiy mazmundagi satrlardan tanlab olingan bo'lib, bo'limda bayon etiladigan voqealarning umumiy ruhini belgilab beradi. Masalan, romanning dastlabki fasllaridan birida: "Jannat onalar oyog'i ostidadir" hadisi epigraf qilib olingan bo'lib, unda Yassaviy, uning farzandlari, yolg'iz o'g'li va ahli ayoli Ruqiya bibi haqida so'z boradi. Yana bir fasl boshidagi "Qanoat bir qo'rg'onki, unga kirsang, nafsning qutqusidan qutulasan" epigrafi esa Ahmad Yassaviyning qadrdon do'sti Abdulkholiq G'ijduvoni bilan Buxoroda bo'lib o'tgan suhbatlari haqida. Epigraflar fasl mazmunini oldindan yo'naltiruvchi va voqealar ruhini belgilovchi badiiy-kompozitsion vosita sifatida xizmat qiladi.

Romanda Ahmad Yassaviyning ruhiy holati va hayot yo'li ko'proq badiiy tasvir vositalari orqali ochib beriladi.

Xususan, tashbeh va metaforalardan samarali foydalanilgan. Masalan, Yassaviyning ilm yo'lidagi izlanishlari tasvirida uning qalbi "yorug'lik izlab yo'lga tushgan musofir" holatiga qiyoslanadi. Bu orqali muallif qahramonning ichki dunyosini tashqi manzara bilan bog'laydi. Shuningdek, muridlar va zamondoshlar tasvirida "qalbi qorong'ulikka cho'mgan kishi" kabi ifodalar orqali ma'naviy holati obrazli ko'rinishda beriladi. Bunday tasvir vositalari roman tilini badiiy jihatdan jonlantirib, tarixiy voqealarni quruq bayon darajasidan chiqaradi. Bu kabi badiiy vositalar she'riy hikmatlar tarkibida ham uchraydi:

Qozi, imom bo'lg'onlar, nohaq da'vo qilg'onlar,

Himor yanglig' bo'lubon yuk ostida qolmishlar...

Asarda obrazlarning tashqi qiyofasi va xarakter sifatlovchi birliklar yordamida tasvirlanadi. Xususan, "Muftiy daroz, uning bo'yi salkam uch gaz kelar..." "Shundoq kichik jussa, tik qomatli, xushsurat bir kishining..." kabi sifatlar obrazning tashqi ko'rinishini aniq va jonli tasavvur etishga xizmat qiladi. Bunday sifatlovchi birliklar epitet vazifasini bajarib, muallifning obrazga bo'lgan munosabatini ham ifodalaydi. Natijada obrazning nafaqat tashqi qiyofasi, balki ichki fazilatlarini ham til vositasida ochib beriladi. Bu holat asar tilining leksik-badiiy xususiyatlarini belgilovchi muhim omillardan biridir.

Badiiy asar o'zining to'liq va chuqur mazmunini ifodalashda turli nutq shakllaridan foydalanadi. Adabiyotshunoslikda nutq subyektlari sonidan kelib chiqqan holda badiiy nutqning monologik va dialogik shakllari ham farqlanadi [2. – B. 250]. Har ikkisi ham asar syujeti va xarakterlarini ochishda muhim rol o'ynaydi. Dialog – ikki yoki undan ortiq shaxslar o'rtasida bo'ladigan nutq almashinuvi bo'lib, asarda voqeani tezlashtirish, xarakterlarni rivojlantirish va ziddiyatlarni ko'rsatishda muhim ahamiyatga ega. Har bir nutq almashinuvi, albatta, o'zida qarama-qarshi fikrlarni, qarorlar va hissiyotlarni o'z ichiga oladi. Bu nuqtai nazardan, dialog asarda harakatni davom ettiradi va xarakterlarning rivojlanishiga xizmat qiladi. Masalan:

–Qoravoy, eshitingmi, Hazrati Sulton hajja ketayotgan emish?

Kamol u savatdan bu savatga olma terayotgan edi.

– Yo'g'e, rostdanmi? – deb bir zum to'xtab qoldi.

– Rost, boya sen mustahabga ketganingda darvishlar qichqirib o'tdilar. "Shayx-ul mashoyx Sulton ul-orifin Xoja Ahmad Yassaviy hazratlari bayt-ul muqaddasga otlandilar!" dedilar.

– Bizni xudo uribdi, xushro'y – dedi Kamolning ruhi tushib. – O'zimiz endi elikxonlar zulmidan qutulg'on edik, lop etib qayta qoraxitoy bostirib kelib qolmasa de.

Bu dialogda Hazrati Sultonning hajja ketishi haqidagi yangilik qanday tarqalgani ko'rsatilgan. Xalq o'rtasida shubha va qo'rquv yaratilib, syujetning rivojlanishi uchun zarur bo'lgan konflikt paydo bo'lgan. Dialogning badiiy funksiyasi nafaqat xarakterlarni ochish, balki voqeani rivojlantirishdir. Shuningdek, dialog faqat tashqi nutq sifatida ko'rinmaydi, balki har bir suhbatning o'zi qandaydir g'oya va mantiqni ifodalaydi, bu esa o'quvchiga muayyan voqealarga qarshi turli fikrlarni taqdim etadi.

Monolog esa badiiy asarda personaj o'y-kechinmalari, his-tuyg'ularining "ichki monolog", "ong oqimi" tarzida yoki muallif tilidan bayon qilinishi psixologik tasvirning bevosita shakli hisoblanadi [2]. Monologda personajlar ichki dunyosining sirli va noaniq tomonlari ochiladi. Bu nutq shakli orqali o'quvchi personaj xatti-harakatlarining sabablarini tushunishi mumkin. Misol uchun, romandagi bir monolog: "Shahobiddin oyna olib aftiga qaradi. Qo'rqib ketti. "Nahotki, bir umr qiyshiqog'iz bo'lib qolsam? Tilovat ne bo'ladi? Shunday qiroat bilan biz bu yoqda qolib, anavi zanchalish Mavlud qoriga o'xshaganlar to'rga o'tib ketaveradimi? Shayxning oldiga borib oyog'iga yiqilsammikan? Yo'q,

bormayman. “Hm, qorayaloq, itday bo‘lib keldingmi?” demaydimi. Y, Alloh, yanglishdim, sening muborak so‘zingga shak keltirdim, o‘zing shafqat qil, osiy bandangman, el-yurtga ro‘siyo qilma. Tavba qildim, tavba qildim, parvardigori olam!..” Adabiyotshunoslik nazariyasida monolog faqat badiiy nutq shakli sifatida ko‘rilmaydi, balki bu – psixologik tahlil usuli hamdir. Monolog personajlarning ichki kechinmalarini o‘rganishda ruhiy tahlil qilishning vositasidir [1]. Shahobiddinning monologi uning ichki injiqliklari va o‘zini kechirishiga yo‘g‘rilgan, shuningdek, tavba qilish va axloqiy poklanishni istagan bir holatdir.

Xulosa va takliflar. Sa‘dulla Siyoyevning “Ahmad Yassaviy” romani tili tarixiylik va badiiylik uyg‘unligida

shakllangan. Muallif nutqi va personajlar nutqi o‘zaro bog‘liq holda qahramonlar xarakterini ochadi. Tarixiy va arxaik leksika davr ruhini yaratadi, tasavvufiy terminlar g‘oyaviy qatlamni belgilaydi, fasllar boshida keltirilgan epigraflar esa voqealar rivojiga yo‘naltiruvchi kompozitsion vosita bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu xususiyatlar roman tilining badiiy-estetik qiymatini belgilaydi. Asardagi epigraflar, allegoriyalar, frazeologizmlar asarning g‘oyaviy-badiiy tizimini mustahkamlaydi. Roman tili nafaqat voqeani, balki ruhiy kamolot jarayonini ham badiiy vositalar orqali yoritadi. Dialog va monolog badiiy asarning eng muhim elementlaridan bo‘lib, ular asar syujeti va xarakterlarni chuqurroq anglash uchun zamin yaratadi.

ADABIYOTLAR

1. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2002.
2. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2018.
3. Siyoyev S. Ahmad Yassaviy. Roman. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2014.
4. Yo‘ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. – Toshkent: Fan, 2006.